

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK
OMILLAR

A.Abdullayeva

FarDU katta o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 7 - fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, shuningdek, 2016 - yil 14 - sentyabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 2- fevraldagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5325-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 - yil 2- sentyabrdagi yalpi yig'ilishida 1994 - yildan boshlab 15 - mayni “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga kelishilganligini o'zi ham bu masalani xalqaro miqyosida qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g'amxo'rliqi oilalarning mustahkamligi va tinchligiga asos bo'lgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik - xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy - ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur”.

Yoshlarning oilaviy hayot to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirishda ularning oilaviy hayotga biologik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, xuquqiy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukliklari, shaxslararo munosabatlar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganganliklari, emotsional hissiy munosabatlarning hususiyatlarini bilishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki oilaning mustahkamligi ko'p jihatdan oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga qay darajada tayyorligiga bog'liq. Shuning uchun oilaviy hayot zaminida yuzaga keladigan nohush hodisalarning oldini olish, oilalar buzilishining oldini olish va noto'liq oilalar miqdorini kamaytirish, ularda har tomonlama sog'lom psixologik iqlimni yuzaga keltirish borasida amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligi shu oilalarni yuzaga keltirayotgan yoshlarning shaxsiga, individual psixologik hususiyatlariga, ularning oilaviy hayotlarini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etishga qay darajada tayyor ekanliklariga bog'liqdir.

Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Bugungi kunda bu masala yanada dolzarblikni taqazo etmoqda va davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Chunki mustaqil davlatimizning taraqqiyoti kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga, ularning duyoqarashiga, oilaviy muhitning sog'lomligiga, mustahkamligiga uzviy bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi holati oila oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni qo'ymoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, odamlarning o'zaro muloqat, munosabatlar doirasi inson ruhiyatida hissiy emotsional o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda va bular oilaviy

hayot xarakteriga xam o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Yoshlik bu ajoyib bir davrdir. Uni extiyot qilish, yigit-qizlarning umrini befoyda, samarasiz o'tkazishlariga yo'l qo'ymaslik, ularni hayotda o'z o'rnini topishlariga yordam berish muhimdir. Hozirgi davrda o'zbek ayol zimmasiga milliy, sharqona ma'naviyatni saqlab qolish va uni yanada yuksaltirish, zamonaviy asoslarda davom ettirish mahsulyati yuklangan. Hayo, ibo, iffat, farosat, nazokat, samimiylik, kamtarlik, oqilalik, uddaburonlik chinakkam ma'naviyatli ayollarimizga xos fazilatlar hisoblanadi. Shu bilan birga oilaning psixologik iqlimini mo'tadil saqlab turuvchi, oilaviy hayotni yanada baxtli qilishning qoidalari xam mavjudki, bularga quyidagilar kiradi.

1. Oiladagi o'zaro ishonch. Er va xotinning o'zaro sadoqati, bir-birining qadriga yetishi, qaysarlik va o'zbilarmonlikka berilmaslik, har qanday razillik va pastkashlikdan, insofsizliklardan uzoqroq bo'lishlari muhimdir. Er va xotin o'rtasidagi muhabbat qanchalik sof, samimiy, chin sevgi bo'lsa, ular bir-birlarini doim e'zozlaydilar, avaylaydilar, ko'nglini qoldirmaydilar. Muhabbat shunday kuchli, shirin tuyg'uki, ayol zoti erkak bilan turmush qurganda, butun qalbini unga in'om etadi. Er oilaning sultoni bo'lib qoladi. Vafodor xotinga mard erkak juft bo'lsa, o'zini dunyoda baxtli hisoblaydi. Biroq ba'zi erlar borki, ana shunday baxtni sezmaydi, shu baxtni asrab avaylash o'rniga oyoq ostiga toptaydi, o'z baxtini ham, xotin baxtini ham qaro qiladi. Er bilan xotin o'rtasida o'zaro hurmat va chinakam sevgi bo'lishi lozim. Er shunday bo'lishi kerakki, uni xotini hamisha hurmat qilsin, u vijdonli bo'lsin, xotiniga nima va'da bersa uni albatta bajarsin. Shu ma'noda oilada er o'zining qadr-qimmatini, oilada boshliq ekanini, bolalarning otasi ekanini unutmasligi kerak. Inson o'zi pok bo'lsa, odamlarga pok nazar bilan qaraydi, zotan egri ko'zgu to'g'rini ham egri ko'rsatadi. Insondagi eng sof tuyg'u xayo, iffat hisoblanadi. Er va xotin o'rtasida hayo, iffat, poklik bo'lsa, muhabbat degan tuyg'u doim e'zozlansa - totuv turmush, shirin hayot bir umr davom etadi. Er yaxshi bo'lsa, xotin kuladi, oila yashnaydi, farzandlar yayraydi. U eng avvalo o'z jufti halolini bolalarning onasi sifatida avaylashi kerak.

Odatda tushunchasi tor, madaniyatsiz, hudbin va sershubha odamlar o'zlarini qiynab, behuda rashk o'tida azob chekadilar, arziyas hatti-harakat harakat, chiroyli mulozamat va odob doirasida qilingan xushomad ham ularning diliga g'ul-g'ula solib, bo'lmag'ur shubhalarni tug'diradi. Lekin rashkning xam o'z o'rni, vaqti, sababi bo'lishi kerak. Bekordan-bekorga rashk qilish umrni qiyadi, oilani buzadi. Dili pok odam har qanday sharoitda xam o'zini tiyadi. Ayol kishida chehra go'zal yoki xunuk bo'lishidan qat'iy nazar, birinchi navbatda uning qalbi go'zal, fikri tiniq, niyati ezgu bo'lishi kerak. Oilaviy baxtni saqlab qolish uchun tirnoq ostidan kir qidirmang, shubha qilmang. Ana shunda oiladagi o'zaro ishonch saqlanib qoladi.

2. Diqqat - e'tiborli bo'lish. Oilada er va xotinning bir-biriga ozgina bo'lsa ham e'tiborli bo'lishi oila baxtini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Xotinning er hurmatini joyiga qo'yishi, uni qadrlashi, uning bor-yo'g'iga, ahvol ruhiyatiga qarashi muhimdir. Eng oddiy, ba'zan mayda-chuyda sanalgan odatlar: ishga yaxshi borib keling, yaxshi borib keldingizmi kabi so'zlar, kutib olish, narsani darrov qo'lidan olib kabi odatlarga e'tibor bilan qarash lozim. Shu bilan birga ayol o'ziga ham befarq bo'lmasligi, yurishi, turishi, kiyinishi eriga ma'qul bo'lib, uning xavasini keltiradigan bo'lishi kerakligini unutmasligi lozim. Ayollarning bitta muhim hususiyati shuki, ular nima uchundir tug'ilgan kunlarni yaxshi eslab qolishadi. Hurmatli yigitlarimiz ham bunga befarq bo'lmasalar, kichkina sovg'a bilan ayoliga e'tibor qilishi er va xotin munosabatida insoniylikni bildiradi. Er-xotin o'zaro munosabatlarida

e'tiborli bo'lishsa, o'zaro hurmat va ishonchni ardoqlashsa, bir-birini tushinishi va ko'ngliga yo'l topish uchun intilishsa, sevimli kishi uchun yon berishdan orlanmasa, o'rtalaridagi mehr-oqibat uzoq muddatga yetadi.

3. Muloyimlik oilada eng muhim fazilat. Yaxshi so'z jonga oziq, dilga quvvat beradi. Oilada er xam xotin xam totuv bo'lib, bir-birlariga shirin so'zli, xushmuomila bo'lishsa, umrlariga umr qo'shiladi. Katta kuch bilan erishmagan

narsaga muloyimlik bilan erishsa bo'ladi. Oilada er-xotin munosabatining mo'tadilligini yoqimli xushmuomila, shirinso'zlik, ko'ngilni keng qilish, gapni yaxshi tomonga burish bilangina asrab qolish mumkin.

Ma'lumki bizga eng qo'pol, achchiq so'zlarni gapiradiganlar o'z oila a'zolarimiz hisoblanar ekan. Agar ayollar o'z erlariga begona erkaklarga, erlar o'z xotinlariga begona xotinlarga ko'rsatgan muloyimliklarni ko'rsatishganda edi, hamma oilalar baxtli bo'lar edi.

4. Tanqid qilmang. Ayol muhabbatini qozonish har bir qalbning o'ziga bog'liq. Ayrim hollarda, to'ydan keyin kelin-kuyovlar o'rtasidagi mehr-muhabbat susayganday bo'lib qoladi. Bu turmush ikir-chikirlaridan, ayrim qiyinchiliklarning kelib chikishidan, shuningdek yosh kelinning ro'zg'or tuta bilmasligi, ma'naviyatini to'ldirib bormasligidan kelib chiqadi. Odatda kishi o'zida yo'q narsalarni boshqalardan qidiradi, topsa uni qadrlaydi. Shu jihatdan qaralganda sevgan kishingizdagi bor nuqsonlarni kechira bilish, ularni odob bilan yo'qotishga harakat qilgan ma'qul. Tanqid qilmasdan iltifotli va mehribonlik bilan oilaviy hayot baxtini saqlash har bir yigit va qiz uchun odat bo'lishi zarur.

5. Minnatdorchilik bildirish. Oilaviy munosabatlarda katta o'rin tutadigan tomonlardan yana biri er-xotinning bir-biriga sitqidildan minnatdorchilik bildirishidir. Erkak kishi oilasidan hech narsani ayamaydi. Qanoatli ayol erining topganini rejali sarflab ro'zg'or yuritadi, erning topish-tutishiga qanoat qiladi, joy-joyiga qo'yadi, saranjom sarishta tutadi.

Bir dehqon ayol erkaklar ishdan charchab kelishsa oldilariga bir bog' pichan qo'yibdi. Ular achchiqlanishsa, ayol «men sizlar buni hashak ekanligini payqamaysizlar debman, men sizlarga 20 yildan beri ovqat pishiraman biror marta hech bo'lmasa hashak yemayotganliklaringizni aytmagansizlar» debdi. Demak, hurmatli erkaklar ayolingiz tayyorlagan taomga o'z minnatdorchiligingizni bildirsangiz uning ko'nglini qanchalar ko'targan bo'lasizlar. Erkaklar e'tibor bermaydigan bir fakt shuki, ayollar uchun eng muhim narsa kiyim hisoblanadi.

Qarib ko'zdan qolgan ayol yoshligida qanday ko'ylakda ekanligi bilan qiziqishi mumkin. Agar erkak va ayol ko'chada boshqa erkak va ayolni uchratishsa, ayol erkakdan ko'ra ko'proq boshqa ayolning qanday kiyinganligiga e'tibor beradi. Erkaklar besh yil oldin kiygan ko'ylaklarini umuman esdan chiqarishlari mumkin, ammo ayollar uchun bu muhim hisoblanadi. Shuning uchun er-xotiniga o'tgan yilgi ko'ylagida qanday go'zal ko'rinishini aytsa, u bu ko'ylagini oxirgi modadagi kiyimga almashtirmasligi mumkin. Agar xotiniga uni qanday yaxshi ekaligini aytsa, u ro'zg'or uchun yanada jon kuydira boshlashi mumkin.

1. A.R.Abdullayeva //THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 670-674 pages.
2. A.R.Abdullayeva //PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 4, Issue 3. March, 2023. 43-50 pages.
3. Абдулаева Арофат Рустамовна //ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ// Uzbek Scholar Journal. Volume-06, July, 2022. 26-29 pages.
4. А.Р.Абдуллаева, М.Р.Абдукаримова //ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҲ МОТИВЛАРИНИ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 14-SON. 20.12.2022. 1132-1138 betlar.
5. Рустамовна А.А., //ФАКТОРЫ С. П. ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ// Зона конференций. 2022. 43-45 стр.
6. Rustamovna, A.A. //BO'LAJAK HARBIY KADRLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILAVIY MUHIT TA'SIRINI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI// JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume-7 | Issue-2| 2022. 35-43 pages.
8. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 23 rd January, 2023. - Canada, Ottawa. 136-140 pages.
10. Рустамовна А.А. //СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ// Зона конференции. 2022.
11. Abdullaeva Arofat Rustamovna //SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE FAMILY ENVIRONMENT IN THE PATRIOTIC UPBRINGING OF FUTURE MILITARY PERSONNEL// International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland. January 10th 2022. 43-45 pages.
12. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION.Vol. 2 No. 13, 2023. 129-133. pages.
13. Абдуллаева, А. Р. (2023). ОИЛА ФУНКЦИЯЛАРИНИ ОТА-ОНА ВА ФАРЗАНД МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИНИ ИЖТИМОИЙ- ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 160-164.

14. Абдуллаева, А. Р., Абдукаримова, М. Р. (2022). ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҲ МОТИВЛАВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 1132-1138.

15. Абдуллаева, А., Тошболтаева, Н., ИЖТИМОЙ, О., ОМИЛЛАР, П., & DEVELOPMENTS, I. RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 23 rd January, 2023. Canada, Ottawa, 136-140.

16. Akhmadkhonovna, K. G., Rustamovna, A. A., & Saydolimovna, Z. D. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

17. Солиев, Ф. С., Абдуллаева, А. Р., & Джухонова, Н. Х. (2019). Формирование психологической культуры и этноценностных ориентаций студенческой молодежи.

18. Rustamovna, A. A. (2022). Socio-Psychological Factors Influencing The Family Environment In The Patriotic Upbringing Of Future Military Personnel. In Conference Zone (pp. 43-45).

19. Rustamovna, A. A., & Noxida, D. (2021). Ethnopsychological features of the preparation of student girls for family life. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 974-979.

20. Абдуллаева, А., & Тошболтаева, Н. (2023). ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(18), 21-26.

21. Arofatxon, A., & Mohinur, D. (2021). Oilaviy Munosabatlar Va Ularga Psixologik Yondashuv Negizi. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(1), 108-114.

22. Абдуллаева, А. (2023). ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. ЎЗБЕК О'ҚИТУВЧИ, 3(30), 467-473.

23. Abdullaeva, A., & Rakhmonov, S. (2023). MANAGEMENT PSYCHOLOGY AND ITS RESEARCH METHODS. Open Access Repository, 4(3), 1449-1454.

24. Рустамовна, А. А. (2022). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ. In Зона конференции.

25. Abdullaeva, A. (2021). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY ON THE CHILD'S PSYCHE. Теория и практика современной науки, (5 (71)), 3-6.

26. А Абдуллаева, С Рахмонов. (2023). ОИЛАДА ТАРБИЯЛАНАЁТГАН ФАРЗАНДЛАРНИНГ ЖИНСГА ХОС ТАЪСАВВУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНИШИДА ОТА-ОНА ТАЪСИРИНИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ. Научный Фокус 1 (2), 1274-1281

17. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.

18. Sattorovich, A. U. (2023). **YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS**, 2(20), 232-234.

19. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). **GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум**, (12 (79)), 10-13.

20. Abdusalomov, U. S. (2023). **DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD**, 1(1), 6-9.

21. Sattarovich, A. U. (2022). **We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. Zien Journal of Social Sciences and Humanities**, 6, 24-26.

22. Sattorovich, A. U. (2023). **HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM**, 1(12), 96-100.

23. Sattarovich, A. U. B. (2022). **«HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI»**. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 90-97.

24. Абдусаломов, У. С. (2023). **ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ-ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**, 5(5), 13-17.